Ташмухамедова Карима Саматовна, Якубова Сабина Алишеровна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA FERMER XO'JALIKLARINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH	1222
B.B.Seilbekov	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOT VA EKOLOGIK BARQARORLIK SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH YO'NALISHLARI.....	1226
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich	
ANALYSIS OF THE CURRENT STATE OF FOREIGN TRADE ACTIVITY IN UZBEKISTAN'S REGIONS AND FORECASTING REGIONAL FOREIGN TRADE UNDER WTO AND EAEU ACCESSION (BASED ON THE CASE OF KAZAKHSTAN).....	1230
Sitara Tojiqulova Sobirjon qizi	
BANKLARNING KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA NAZORAT QILISHNING – COST OF RISK (COR) KO'RSATKICHI TAHLILI	1240
Maxmudov Omon Tuxtayevich	
1-WIRE PROTOKOLI ASOSIDA BIOSIGNALLARNI UZATISH JARAYONI VA MA'LUMOTLAR STRUKTURASINI LOYIHALASH	1245
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA VA UNING XUSUSIYATLARI	1250
Ibrohimov Davronbek Muhammadi o'g'li	
ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНЕ.....	1257
Хамидходжаева Назира Махкамовна	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI AYLANMA MABLAG'LARINI BOSHQARISH METODOLOGIYASI.....	1260
Taspanova Ayzada Kenjebayevna	
MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT SANOATI VA UNING RIVOJLANISH HOLATI	1264
Xusanova Gavhar	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LTE VA NR TARMOQLARINING BIRGALIKDA ISHLASHINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI.....	1270
Toshmatov Salohiddin Zayniddinovich	
THE OPPORTUNITIES OF PERSONALIZING TOURISM SERVICES THROUGH ARTIFICIAL INTELLIGENCE	1276
Olimov Davron Olimovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ РАДИОЖУРНАЛИСТИКИ В ЭПОХУ ЦИФРОВОГО ЭФИРА: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА И ГЛОБАЛЬНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ	1281
Мамадалиева Шахноза Абдумаликовна	
EFFECTIVE MANAGEMENT OF ADMINISTRATIVE PERSONNEL IN UZBEKISTAN'S PUBLIC UNIVERSITIES.....	1289
Inoyatov Orzubek Saidvaliyevich	
ZAMONAVIY MENEJMENTDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	1297
Igamberdiyeva Nasiba Babadjanovna	
DAVLAT QIMMATLI QOG'OZLARI MILLIY MOLIYA BOZORINI BARQARORLASHTIRISH OMILI SIFATIDA.....	1304
Rabiyev Akram Homitovich	
AKTSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INNOVATSION JARAYONLARNI KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMI ASOSIDA TARTIBGA SOLISH ISTIQBOLLARI	1311
Xujaxonov Nuriddin Nasrullayevich	
ВОПРОСЫ ВНЕДРЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА	1318
Худайберганава Зарофат Захидовна	
К ВОПРОСУ О РАССМОТРЕНИИ РИСКОВ ЛЕГАЛИЗАЦИИ НЕЗАКОННЫХ ДОХОДОВ В УЧЕБНЫХ МАТЕРИАЛАХ ПРОФИЛЬНЫХ ПРЕДМЕТОВ ПО БАНКОВСКОМУ АУДИТУ	1324
Мухамедова Севара Абдуллаевна	



JAHONDA KREATIV IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING MODELLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	1330
Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich	
MINTAQA SANOATIDA RAQAMLI XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONI	1336
Norov Murodjon Maxmudovich	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH: HOLATI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	1342
Maxkamov Otabek Muxammadjonovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA O'RTA VA UZOQ MUDDATLI DAVRDA DAVLAT QARZINI BOSHQARISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI.....	1351
Egamberdiyev Jonibek O'ralovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI O'RTASIDA RAQOBAT VA UNING MUAMMOLARI	1354
Mardonov Bahodir Bahronovich, Abdanov Rahmatillo Abdig'afurovich	
AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH HAMDA TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1360
Xamdamonov Shaxzod Ilxom o'g'li	
ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	1365
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна	
SAVDO JARAYONIDA MARKETING TEXNOLOGIYALARINI QO'LLANILISHI	1371
Jalalova Dildora Jamolovna	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN: LESSONS FROM SOUTH KOREA.....	1375
Karshieva Marjona Alisher kizi	
TURIZM XIZMATLARI EKSPORTI VA YASHIL IQTISODIYOTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	1380
Qurbonova Malika Ahmad qizi	
SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	1384
Uzoqov Farhod G'afforovich	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI MEKANIZMI VA UNING RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI RIVOJLANISHI....	1388
Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich	
BANKLARDA MUAMMOLI KREDITLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1392
Mitillayev Ibrohimjon Tursunpulatovich	
BUG'DOY HOSILDORLIGI VA YALPI HOSILINI TAHLIL QILISH HAMDA HISOBLASH USULLARI	1396
Uzoqova Ziyodaxon Abdug'afforovna	
RAQAMLI MOLIVAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI	1402
Muyassarzoda Fayziyeva	
MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH ORQALI AGRORESURLAR BOZORI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI OSHIRISH MASALALARI	1408
Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, Tashmuxeamedova Yayra Atxamovna	
JAHONDA KREATIV SOHALARNI RIVOJLANISH EVOLYUTSIYASI VA HOZIRGI DAVRDA IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI.....	1414
Ismailov Azizbek Ruzimaxamatovich	
OSIYO DAVLATLARI RAQAMLI JURNALISTIKADA AYOLLAR ISHTIROKI (JANUBIY KOREYA, HINDISTON, YAPONIYA) DAGI ZIDDIYATLAR.....	1425
Zakirova Oisha	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: СОЦИОЛОГИЯ РОЛИ ЖЕНЩИН И ГЕНДЕРНОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ В ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ОБЩЕСТВЕ	1431
Сиддикова Гулноза Абдумаликовна	



AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI YURITISHDA

TA'MINOT JARAYONINING AHAMIYATI..... 1437

Nuraliyeva B.



AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI YURITISHDA TA'MINOT JARAYONINING AHAMIYATI

Nuraliyeva B.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti o'qituvchisi

Email: b.musirmanova@mail.ru

ORCID:0009-0004-7709-5201

Annotatsiya. Ushbu maqolada aksiyadorlik jamiyatlarida moddiy zaxiralar bilan bog'liq ta'minot jarayonining mazmuni, tarkibiy bosqichlari hamda uning samaradorligini oshirishga qaratilgan nazariy va amaliy yondashuvlar tahlil qilinadi. Jumladan, rejalashtirish, sotib olish, yetkazib berish, saqlash va taqsimlash kabi asosiy funksiyalar har tomonlama ko'rib chiqilib, ularning o'zaro bog'liqligi yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy boshqaruv konsepsiyalari — EOQ modeli, JIT tizimi, logistika va xavf-menejment yondashuvlari asosida tahlil o'tkaziladi. Maqolada mavjud muammolar hamda ularga yechim sifatida tavsiyalar keltirilib, ta'minot tizimining aksiyadorlik jamiyatlarining ishlab chiqarish barqarorligi va iqtisodiy samaradorligidagi o'rni asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: moddiy zaxiralar, ta'minot jarayoni, aksiyadorlik jamiyati, rejalashtirish, logistika, xavf-menejment, EOQ, JIT.

Abstract. This article examines the supply process related to material reserves in joint-stock companies, focusing on its main stages and the integration of theoretical and practical approaches to improve efficiency. Key functions such as planning, procurement, delivery, storage, and distribution are analyzed in detail, highlighting their interdependence. The article also discusses modern management concepts including the EOQ model, Just-In-Time (JIT) system, logistics, and risk management. Common challenges are identified, and practical recommendations are provided. The role of an effective supply system in ensuring production continuity and economic sustainability in joint-stock companies is substantiated.

Key words: material reserves, supply process, joint-stock company, planning, logistics, risk management, EOQ, JIT.

Аннотация. В данной статье рассматривается процесс снабжения, связанный с материальными запасами в акционерных обществах, с акцентом на его основные этапы и применение теоретических и практических подходов для повышения эффективности. Подробно анализируются ключевые функции, такие как планирование, закупка, доставка, хранение и распределение, а также их взаимосвязь. Также рассматриваются современные концепции управления, включая модель EOQ, систему Just-In-Time (JIT), логистику и управление рисками. Выявлены распространённые проблемы и даны практические рекомендации. Обоснована важность эффективной системы снабжения для обеспечения производственной устойчивости и экономической эффективности акционерных обществ.

Ключевые слова: материальные запасы, процесс снабжения, акционерное общество, планирование, логистика, управление рисками, EOQ, JIT.

KIRISH

Aksiyadorlik jamiyatlarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ularning orasida tovar-moddiy zaxiralarni samarali boshqarish alohida o'rin tutadi. Aksiyadorlik jamiyatlarida ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatining uzluksizligini ta'minlashda tovar-moddiy zaxiralarning (TMZ) o'rni nihoyatda muhimdir. Tovarmoddiy zaxiralar – bu ishlab chiqarish, savdo yoki xizmat ko'rsatish faoliyatini davom ettirish uchun zarur bo'lgan xom ashyo, butlovchi qismlar, tayyor mahsulotlar va boshqa moddiy resurslar hisoblanadi. Ushbu zaxiralarni to'g'ri hisobga olish va boshqarish jamiyatning iqtisodiy samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonning muhim bosqichlaridan biri ta'minot jarayonidir, ya'ni zaxiralarni o'z vaqtida, kerakli miqdorda va sifatda yetkazib berish. Ta'minot tizimining yaxshi yo'lga qo'yilishi tovar-moddiy zaxiralar hisobi aniqligi, ishlab chiqarish uzluksizligi va ortiqcha xarajatlarning oldini olishda katta ahamiyatga ega. Zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda bozordagi raqobatning kuchayishi, logistika tizimidagi murakkabliklar, yetkazib berish zanjirlarining uzilishi kabi holatlar aksiyadorlik jamiyatlarini ta'minot tizimini yangicha, ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida



tashkil etishga undamoqda. Ayniqsa, tovar-moddiy zaxiralarning noto'g'ri boshqarilishi nafaqat ishlab chiqarish jarayonida uzilishlarga, balki moliyaviy hisobotlarda aniqlikning buzilishiga ham olib keladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tovar-moddiy zaxiralar masalasi xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Ular tovar-moddiy zaxiralar haqida o'z fikrlarini bildirgan va ta'riflarini bergan. Shuningdek, tovar-moddiy zaxiralar hisobini korxonalarda to'g'ri olib borish va yuritish uchun tegishli standartlar ham mavjud. Respublikamizda tovar-moddiy zaxiralar hisobini tartibga soluvchi 4-sonli BHMS bunga yaqqol misoldir. Ushbu BHMSga muvofiq tovar-moddiy zaxiralarga quyidagicha ta'rif beriladi: "Tovar-moddiy zaxiralar — keyinchalik sotish maqsadida normal faoliyat yuritish uchun tutib turiladigan, ishlab chiqarish jarayonida mavjud bo'lgan, shuningdek mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish jarayonida yoxud ma'muriy, ijtimoiy, madaniy vazifalarni amalga oshirish uchun foydalaniladigan moddiy aktivlardir."

2-sonli buxgalteriya hisobi xalqaro standartida esa tovar-moddiy zaxiralar "zaxiralar" deb yuritilgan bo'lib, unga ko'ra zaxiralar — odatdagi faoliyat doirasida sotish uchun mo'ljallangan, bunday sotuv uchun ishlab chiqarish jarayonida bo'lgan yoki xizmatlar ko'rsatilishida foydalanilishi ko'zlangan xom ashyo va materiallar ko'rinishidagi aktivlardir.

Tovar-moddiy zaxiralar hisobini yuritishda ta'minot jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi. Amerikalik olimlar Kili L. Krokston, Sebastyan Garsiya-Dastuge, Deyil Redjers va Duglas M. Lamberg o'z ilmiy tadqiqotlarida Global ta'minot zanjiri forumi tomonidan aniqlangan sakkiz asosiy ta'minot zanjiri jarayonining har biriga strategik va operatsion nuqtayi nazardan yondashib, ularning o'zaro bog'liqligi va interfeyslarini (o'zaro ta'sir nuqtalarini) vizual shaklda tasvirlab berganlar. Shuningdek, tadqiqotchilar tashkilotlarda jarayonga asoslangan yondashuvni joriy etish jarayonida yuzaga keladigan muhim masalalar va ularning yechimlariga ham oydinlik kiritganlar. Olimlarning asosiy maqsadi menejerlarga ta'minot zanjiri boshqaruvini samarali amalga oshirish uchun ilmiy asos yaratishdan iborat bo'lgan.

Rossiyalik olim Pronin I.I. tomonidan olib borilgan tadqiqot ta'minot zanjiri boshqaruvi sohasiga bag'ishlanib, ushbu yo'nalishning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur tahlil qiladi. Nazariy jihatdan muallif ta'minot zanjiri boshqaruvi barcha bosqichlarni yagona tizim sifatida muvofiqlashtiruvchi yondashuv deb ta'riflaydi. Tadqiqotda ta'minot zanjiridagi turli bo'g'inlar — yetkazib beruvchilar, ishlab chiqaruvchilar, distribyutorlar, chakana savdo tarmoqlari va mijozlar — hamda ularning har biri o'ynaydigan rol batafsil tahlil qilinadi.

Amaliy jihatdan esa Pronin I.I. ta'minot zanjiri boshqaruvining asosiy maqsadlari sifatida operatsion xarajatlarni kamaytirish va xizmat ko'rsatish darajasini oshirishni ko'rsatadi. U, shuningdek, mahsulotni tarqatish jarayonlarini avtomatlashtirish va nazorat qilishda zamonaviy SCM (Supply Chain Management) tizimlarining o'rni va ahamiyatini ta'kidlaydi. Ta'minot zanjirini modellashtirish orqali mavjud resurslardan samarali foydalanish, oqimlarni optimallashtirish va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda raqamli vositalardan foydalanish muhim jihatlar sifatida ko'rib chiqiladi.

Ushbu tadqiqotda Pronin I.I. ta'minot zanjirini boshqarishga tizimli yondashuvni ilgari surib, xarajatlarni kamaytirish va umumiy samaradorlikni oshirish maqsadida jarayonlarni yetkazib beruvchilardan to mijozlarga barcha bosqichlarda muvofiqlashtirish zarurligini asoslaydi. U, xususan, SCM tizimlaridan foydalanish orqali avtomatlashtirish imkoniyatlarini yoritib, yetkazib beruvchilar, ishlab chiqaruvchilar va logistika kompaniyalarining zanjirdagi har bir bo'g'ini qanday strategik ahamiyatga ega ekanligini tahlil qiladi.

Amaliy nuqtayi nazardan Pronin I.I. ta'minot zanjirini boshqarishda beshta asosiy funksional element — rejalashtirish, manba (xomashyo ta'minoti), ishlab chiqarish, yetkazib berish va qaytarish (reverse logistics) — ga tayanadi. Tadqiqotda ta'kidlanishicha, bu elementlarning har biri alohida e'tibor talab qiladi, biroq ularning samaradorligi aynan o'zaro integratsiyalashuvi va uzluksiz hamkorligiga bog'liq. Muallif ushbu jarayonlarning har birini alohida va bir butun sifatida o'rganish orqali korxonalar katta moliyaviy yo'qotishlarning oldini olishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Rossiyalik olimlar Smirnova Ye.A. va Zuyev A.V. o'z tadqiqotlarida doimiy o'zgarib borayotgan biznes muhiti sharoitida ta'minot zanjiri boshqaruvi sohasida yangi logistika tamoyillarini ishlab chiqish va ularga moslashish zarurligini asoslaydilar. Ular zamonaviy sharoitda qo'llanilayotgan ta'minot zanjiri boshqaruvi modellari, usullari va asosiy tushunchalarga analitik yondashuv asosida baho berib, yetakchi mutaxassislarining amaliy tajribasini umumlashtiradilar.

Smirnova va Zuyev ta'minot zanjirlarini tartibga solishda xalqaro yondashuvlarga tayanadi. Ularning fikricha, ta'minot zanjiri faoliyatini normal holatga qaytarish uchun eng maqbul yechim — bu tezkor javob modeli (Quick Response Model) bo'lib, u mahsulot yetkazib berish muddatlarini qisqartirish va jarayonlarda yuzaga keladigan kechikishlarni minimallashtirishga qaratilgan. Ushbu model raqamli platformalar yordamida yuklar identifikatsiyasi, monitoringi va kechikishlarni aniqlashga katta e'tibor qaratadi. Umuman olganda, Smirnova Ye.A. va Zuyev A.V.ning tadqiqoti ta'minot zanjiri boshqaruvida zamonaviy texnologiyalar, tizimli modellashtirish



va xalqaro tajribalarga asoslangan innovatsion yondashuvlarning ahamiyatini ochib beradi hamda ushbu sohada ilmiy-amaliy asoslar yaratishga xizmat qiladi.

Qozog'istonlik olimlar J.J. Kenjaboy va C.K. Axmatkaliyevlarning "Ta'minot zanjirini boshqarishda manipulyatsiyasiz rejalashtirish mexanizmlari" nomli ilmiy maqolasi logistika va ta'minot zanjiri boshqaruvi sohasida dolzarb ilmiy yondashuvni taqdim etadi. Tadqiqotda manipulyativ bo'lmagan, ayniqsa to'g'ridan-to'g'ri (non-manipulable) rejalashtirish mexanizmlarining ustuvor ta'minot zanjiri strategiyalarini amalga oshirishdagi samaradorligi chuqur o'rganilgan. Olimlar ta'minot zanjirining barqarorligi, shaffofligi va samaradorligini ta'minlash uchun o'zgarmas elementlar hamda standartlashtirilgan jarayonlardan foydalanish zarurligini ta'kidlaydilar. Bu, ayniqsa, logistikada manipulyatsiyaning oldini olish va ishonchli boshqaruv tizimini shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotda manipulyatsiyasiz yondashuv nafaqat axloqiy va boshqaruviy barqarorlikni ta'minlashi, balki uzoq muddatli strategik ustuvorliklarga erishish uchun qulay asos yaratishi qayd etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada mavzu yuzasidan izlanishlar olib borilib, ularni yoritishda turli xil iqtisodiy usullardan foydalanilgan. Ilmiy tadqiqotlarni o'rganishda taqqoslash, tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ma'lumotlarni guruhlash, analiz va sintez usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aksiyadorlik jamiyatlarining samarali faoliyat yuritishida tovar-moddiy zaxiralar (TMZ) hisobini to'g'ri tashkil etish va ta'minot jarayonini puxta yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega. Товар-moddiy zaxiralar ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlovchi, sotish hajmiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi hamda korxonaning moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi asosiy resurslardan biridir. Shu bois TMZ hisobi va ta'minot jarayonining o'zaro uzviy bog'liqligi aksiyadorlik jamiyatlarining umumiy boshqaruv tizimida markaziy o'rin tutadi.

Ta'minot jarayonining iqtisodiy mazmuniga to'xtaladigan bo'lsak, ta'minot jarayoni – bu korxonaning ishlab chiqarish faoliyatini zarur xom ashyo, materiallar, butlovchi qismlar va boshqa ishlab chiqarish resurslari bilan o'z vaqtida hamda sifatli ta'minlash tizimidir. Aksiyadorlik jamiyatlarida bu jarayon strategik ahamiyat kasb etadi, chunki u ishlab chiqarish sur'atlarini, zaxiralar darajasini va natijada moliyaviy ko'rsatkichlarni belgilab beradi. Ta'minot jarayonining to'g'ri yo'lga qo'yilishi korxonaning ishlab chiqarish faoliyati, moliyaviy natijalari va umumiy raqobatbardoshligiga bevosita ta'sir qiladi. Quyida uning asosiy yo'nalishlari yoritiladi.

Tovar-moddiy zaxiralarning optimal hajmini belgilash. Ta'minot jarayonining eng muhim vazifalaridan biri — korxonaga zarur bo'lgan tovar-moddiy zaxiralar hajmini to'g'ri aniqlashdir. Optimal zaxira hajmi korxonaning ishlab chiqarish ehtiyojlarini to'liq qondirishi bilan birga, ortiqcha resurslarni muzlatib qo'ymasligi kerak. Zaxira hajmi juda yuqori bo'lsa, korxona mablag'lari aylanmadan chiqib, saqlash, sug'urta va amortizatsiya xarajatlari ortadi; aksincha, zaxira yetarli bo'lmasa, ishlab chiqarish jarayonida to'xtalishlar, buyurtmalarni o'z vaqtida bajarilmaslik holatlari yuzaga keladi. Shu sababli samarali ta'minot tizimi xarid rejalashtirish, talab prognozlash va yetkazib berish muddatlarini tahlil qilish orqali zaxira miqdorini optimallashtiradi. Bu esa korxonaning likvidligini saqlab qolish hamda moliyaviy resurslardan oqilona foydalanishga xizmat qiladi.

Ortiqcha zaxiralar va yetishmovchiliklarning oldini olish. Samarali ta'minot boshqaruvi balansli zaxira siyosatini ta'minlaydi. Ortiqcha zaxiralar – bu korxona kapitalining "muzlashi", ombor joyining ortiqcha bandligi va tovarlarning eskirishi xavfini oshiradi. Yetishmovchilik esa ishlab chiqarish yoki sotish jarayonini to'xtatadi, mijozlar ishonchini pasaytiradi va moliyaviy yo'qotishlarga olib keladi. Shu bois aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy SCM (Supply Chain Management) tizimlari, AIMS (Avtomatlashtirilgan inventar boshqaruv tizimlari) va real vaqt monitoringi yordamida zaxiralarning mavjudligi hamda aylanish tezligi uzluksiz kuzatib boriladi. Bu tizimlar zaxira miqdorini dinamik tarzda boshqarish va yetishmovchiliklarni oldindan aniqlash imkonini beradi.

Ishlab chiqarish jarayonida uzilishlarning kamayishi. Ta'minot zanjirining uzluksiz ishlashi ishlab chiqarish barqarorligi uchun asosiy omildir. Xom ashyo yoki butlovchi qismlar o'z vaqtida yetib kelmasa, ishlab chiqarish liniyalari to'xtaydi, bu esa korxonaning ishlab chiqarish quvvatidan to'liq foydalanishiga to'sqinlik qiladi. Samarali tashkil etilgan ta'minot tizimi esa yetkazib berish shartnomalarini aniq rejalashtirish, transport-logistika tarmoqlarini diversifikatsiya qilish va muqobil yetkazib beruvchilar tarmog'ini yaratish orqali bu xavfni kamaytiradi. Bundan tashqari, "tezkor javob modeli" (Quick Response Model) yoki "moslashuvchan logistika tizimi"ni qo'llash ishlab chiqarishdagi kechikishlarni minimallashtiradi va korxonaning raqobatbardoshligini oshiradi.

Materiallar aylanish tezligini oshirish. Ta'minot jarayonining samaradorligini baholovchi muhim ko'rsatkichlardan biri — materiallar aylanish tezligidir. Bu ko'rsatkich zaxiralarning korxona aylanmasidagi faolligini ifodalaydi. Aylanish tezligi yuqori bo'lsa, korxona resurslardan samarali foydalanmoqda, mablag'lar uzoq muddat omborda "muzlab" qolmayapti, degani. Zaxiralarni tez aylantirish uchun ta'minot jarayonida "just-



in-time” (o‘z vaqtida yetkazib berish) tamoyili, modellashtirish va prognozlash tizimlari, shuningdek raqamli logistika platformalari qo‘llaniladi. Natijada, korxona ishlab chiqarish hajmini moslashtirish, mahsulot tannarxini kamaytirish va foydalilik darajasini oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida tovar-moddiy zaxiralar bilan bog‘liq jarayonlarning ajralmas qismi sifatida ta‘minot jarayoni ko‘rib chiqiladi. Korxonada ta‘minot jarayoni — bu ishlab chiqarish yoki savdo faoliyatini uzluksiz olib borish uchun zarur bo‘lgan resurslarni rejalashtirish, xarid qilish, yetkazib berish va hisobga olishni o‘z ichiga olgan uzviy tizimdir. Ushbu jarayon bosqichma-bosqich amalga oshiriladi va har bir bosqich o‘zining muhim funksiyasi orqali korxonaning umumiy samaradorligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

Ta‘minot tizimining birinchi va eng muhim bosqichi — bu resurslarga bo‘lgan talabni aniqlashdir. Ushbu bosqichda ishlab chiqarish rejasiga asosan korxonaga qancha va qanday sifatdagi xom ashyo, butlovchi qismlar yoki tovarlar kerakligi aniqlanadi.

Bu bosqichda:

- ishlab chiqarishning rejali hajmlari va mavjud zaxiralar hisobga olinadi;
- xom ashyo sarfi normativlari tahlil qilinadi;
- kelgusidagi talab o‘shish tendensiyalari prognoz qilinadi.

Tahliliy jihatdan bu bosqich zaxiralarning ortiqcha yoki kam bo‘lish xavfini oldini olishga xizmat qiladi. To‘g‘ri aniqlangan talab korxonaga ortiqcha saqlash xarajatlarini kamaytirish, ishlab chiqarish uzilishlarini bartaraf etish va mablag‘ aylanishini tezlashtirish imkonini beradi.

Ikkinchi bosqich — mol yetkazib beruvchilarni tanlash bosqichi. Bu bosqichda korxona uchun eng mos va ishonchli mol yetkazib beruvchilar (supplierlar) aniqlanadi. Tanlovda bir qator mezonlar — sifat, narx, yetkazib berish muddati, to‘lov shartlari, ishonchlilik darajasi kabi omillar inobatga olinadi. Tahliliy jihatdan, yetkazib beruvchini to‘g‘ri tanlash korxonaning xarajatlarini kamaytirish, ishlab chiqarishning uzluksizligini ta‘minlash hamda strategik hamkorlikni rivojlantirish imkonini beradi. Zamonaviy sharoitda ko‘plab korxonalar yetkazib beruvchilarni baholash reyting tizimi, tender savdolari yoki strategik sheriklik modellaridan foydalanmoqda.

Shartnomalar tuzish va buyurtmalar berish bosqichi.

Bu bosqichda tanlangan yetkazib beruvchilar bilan rasmiy shartnomalar tuziladi hamda zarur mahsulotlarga buyurtmalar rasmiylashtiriladi. Shartnomalarda yetkazib berish muddati, to‘lov tartibi, sifat ko‘rsatkichlari, kafolat va javobgarlik shartlari aniq belgilanadi. Tahliliy nuqtayi nazardan, bu bosqich ta‘minot tizimining huquqiy va tashkiliy asosini shakllantiradi. To‘g‘ri tuzilgan shartnomalar korxona manfaatlarini himoya qiladi, kelgusidagi xavf va kelishmovchiliklarni kamaytiradi hamda moliyaviy barqarorlikni ta‘minlaydi.

Resurslarning yetib kelishini nazorat qilish bosqichi.

Buyurtma qilingan mahsulotlar sifatli, o‘z vaqtida va to‘g‘ri miqdorda yetkazib berilganligini tekshirish ushbu bosqichning asosiy vazifasidir.

Bu bosqichda:

- yetkazib berilgan tovarlarning miqdoriy va sifatli tekshiruvi amalga oshiriladi;
- yetkazib berish muddati bo‘yicha ijro intizomi nazorat qilinadi;
- shikastlangan yoki nomuvofiq mahsulotlar bo‘yicha qaytarish ishlari olib boriladi.

Tahliliy jihatdan bu bosqich sifatni nazorat qilish tizimining muhim bo‘g‘ini bo‘lib, u samaradorlik va ishonchlilikni oshirish, xarid jarayonida yo‘qotishlarni kamaytirish hamda ta‘minot zanjiri uzilishlarini oldini olish imkonini beradi.

Ta‘minot jarayonining yakuniy bosqichi — bu resurslarni omborga kirim qilish va ularning sarflanishini samarali boshqarishdir. Bu bosqichda yetkazilgan resurslar buxgalteriya hisobiga olinadi, tegishli hujjatlar rasmiylashtiriladi hamda saqlash sharoitlari nazorat qilinadi. Tahliliy nuqtayi nazardan, bu bosqich TMZ hisobining aniqligi, inventarizatsiya natijalari ishonchliliigi va ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shuningdek, bu bosqichda zaxiralar aylanish tezligi, ombor sig‘imidan foydalanish samaradorligi va xarajatlarni kamaytirish imkoniyatlari baholanadi.

Yuqorida o‘rganib chiqilgan ta‘minot jarayoni bosqichlarini hozirgi kunda amaliyotda buxgalteriya hisobida yuritilish jarayonini “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ misolida ko‘rib chiqamiz.

1. Talabni aniqlash bosqichi. Bu bosqichda hali moliyaviy operatsiya sodir bo‘lmaydi, biroq rejalashtirish va ichki buxgalteriya hisobi uchun hujjatlar tayyorlanadi.

Hujjatlar:

- “Materiallarga talabnoma”
- “Xarid reja” yoki “Ishlab chiqarish reja smetasi”

Buxgalteriya provodkasi bu bosqichda yuritilmaydi, lekin rejalashtirilgan xarajatlar smetaga kiritiladi (memorial yozuv sifatida).

2. Mol yetkazib beruvchini tanlash bosqichi. Tender komissiyasi tomonidan yetkazib beruvchilar tanlanadi. Hozircha xarid amalga oshirilmagani uchun bu bosqichda ham provodka yuritilmaydi, ammo shartnomaviy majburiyatlar shakllanadi.



Hujjatlar:

- Tender hujjatlari
- Yetkazib beruvchi bilan shartnoma loyihasi
- Baholash jadvali

Izoh: bu bosqichda moliyaviy natija faqat shartnoma imzolanganida yuzaga keladi.

3. Shartnoma tuzish va buyurtma berish bosqichi. “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ yetkazib beruvchiga buyurtma beradi. Agar avans to‘lovi amalga oshirilsa, quyidagi buxgalteriya provodkasi tuziladi:

Misol: “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ lokomotiv ehtiyot qismlarini sotib olish uchun 50 000 000 so‘m avans to‘laydi.

Buxgalteriya yozuvi:

DT – 4310 (tovar-moddiy zaxiralar uchun mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklar)

KT – 5110 (hisob-kitob schoti)

4. Resurslarning yetib kelishini nazorat qilish bosqichi. Mahsulotlar (masalan, lokomotiv ehtiyot qismlari) omborga yetib keladi. Yetkazib berilgan resurslar shartnomaga muvofiq hisob-faktura (schet-faktura) asosida qabul qilinadi.

Misol: 50 000 000 so‘mlik ehtiyot qismlar qabul qilindi.

DT – 1010 (xomashyo va materiallar)

KT – 6010 (mol yetkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblar schoti)

5. Omborga kirim qilish va TMZ hisobini yuritish bosqichi. Resurslar sifat nazoratidan o‘tib, omborga kirim qilinadi. Bu bosqichda materiallar ishlab chiqarish yoki texnik xizmat ko‘rsatish uchun tayyor holatga keltiriladi.

DT – 2010 (asosiy ishlab chiqarish)

KT – 1010 (xomashyo va materiallar)

Agar bu resurslar hali sarflanmagan bo‘lsa, ular balansda 1000-hisob-kitob schotida tovar-moddiy zaxiralar sifatida saqlanadi.

Shunday qilib, “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ misolida ta‘minot jarayonining buxgalteriyada aks ettirilishi korxonaning moliyaviy intizomini, hisobdagi shaffoflikni va resurslardan samarali foydalanishni ta‘minlovchi asosiy mexanizmlarni o‘z ichiga oladi.¹

1-jadval. “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ misolida ta‘minot jarayonining buxgalteriya hisobida aks ettirilishi

Bosqich	Asosiy mazmun	Hisob harakati
Talabni aniqlash	Rejalashtirilgan resurs hajmini belgilash	Provodka berilmaydi
Yetkazib beruvchini tanlash	Tender va baholash jarayoni	Provodka berilmaydi
Shartnoma va avans	Oldindan to‘lov amalga oshirish	Dt 4310 / Kt 5110
Resurslarni qabul qilish	TMZ qabul qilinadi	Dt 1010 / Kt 6010
Omborga kirim	Materiallar ishlab chiqarishga uzatiladi	Dt 2010 / Kt 1010

Ta‘minot jarayoni muhim bosqich bo‘lgani uchun uning mukammal yuritilishi korxonaning samaradorligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Tadqiqot natijasida ta‘minot jarayoni bilan bog‘liq muammolar mavjudligi aniqlandi. Ularni bosqichma-bosqich ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, masalan, ta‘minot jarayonining ikkinchi bosqichi — ya‘ni mol yetkazib beruvchini tanlashda tender jarayonidagi xatoliklar diqqatga sazovordir. Tender savdolarida narx omilining haddan tashqari ustuvor qo‘yilishi natijasida sifat past, ishonchsiz yoki kechikuvchi yetkazib beruvchilar tanlanadi. Bu esa ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Ushbu muammoni bartaraf etish uchun ko‘p mezonli baholash tizimi (narx + sifat + yetkazib berish tarixi + kafolat + transport masofasi) asosida tanlov o‘tkazish lozim. Har bir yetkazib beruvchi uchun reyting tizimi joriy etilishi shaffoflikni oshiradi va xatirlarni kamaytiradi. “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ tarkibida markazlashtirilgan ta‘minot portali tashkil etish ham muhim yechim bo‘ladi. Bunda barcha tenderlar raqamli platformada ochiq tarzda e‘lon qilinadi. Natijada tanlov shaffofligi ortadi, sifatsiz xom ashyo yetkazib beruvchilar bilan hamkorlik kamayadi, korxona xarajatlari optimallashtiriladi.

Shartnoma shartlarining bajarilishini nazorat qilishdagi sustliklar ham muammolar qatoriga kiradi. Ko‘plab shartnomalarda nazorat mexanizmlari mavjud bo‘lsa-da, amalda ular yetarlicha kuzatilmaydi. Natijada yetkazib berish kechikadi, yaroqsiz mahsulotlarning vujudga kelishi holatlari kuzatiladi. Ushbu muammoning yechimi sifatida korxonalarda ijro monitoringi tashkil etilishi, har bir shartnoma uchun hech bo‘lmasa har chorakda ijro tahlili o‘tkazilishi lozim. Bu jarayonni mazkur faoliyat bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan subyektlar bilan hamkorlikda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



Bunday nazorat tizimi yo'lga qo'yilganda, debitorlik va kreditorlik qarzlarning kechikishlari erta aniqlanadi va nazoratga olinadi. Natijada korxonaning moliyaviy intizomi mustahkamlanadi, ishlab chiqarish barqarorligi ta'minlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Aksiyadorlik jamiyatlarida, jumladan "O'zbekiston temir yo'llari" AJ misolida ko'rib chiqilganidek, tovar-moddiy zaxiralar (TMZ) hisobini to'g'ri tashkil etish va ta'minot jarayonini samarali boshqarish korxonaning ishlab chiqarish barqarorligi, moliyaviy holati hamda umumiy raqobatbardoshligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ta'minot jarayoni nafaqat xom ashyo va materiallarni xarid qilish bilan cheklanmay, balki talabni aniqlashdan tortib resurslarni omborga qabul qilishgacha bo'lgan murakkab va uzviy tizimni tashkil etadi. Har bir bosqich — talabni aniqlash, yetkazib beruvchini tanlash, shartnoma tuzish, resurslarni nazorat qilish va omborga kirim qilish — o'z funksiyasi orqali korxona faoliyatining samaradorligiga ta'sir etadi.

Ayniqsa, shartnoma tuzish va buyurtma berish bosqichida yuzaga keladigan muammolar — shartnoma shartlarining noaniqligi, tender jarayonlaridagi xatoliklar, hujjat aylanishidagi kechikishlar va ichki nazoratning sustligi — ishlab chiqarishning uzluksizligini buzadi va moliyaviy yo'qotishlarga sabab bo'ladi. Shu sababli ushbu bosqichni raqamlashtirish, ERP va SCM tizimlarini joriy etish, ko'p mezonli yetkazib beruvchi tanlash tizimini yaratish hamda shartnoma ijrosini real vaqt rejimida nazorat qilish bugungi kunda zarurdir.

"O'zbekiston temir yo'llari" AJ amaliyotida ta'minot tizimini takomillashtirish orqali:

- tovar-moddiy zaxiralar hajmi optimallashtiriladi;
- ortiqcha zaxiralar va yetishmovchiliklar kamayadi;
- ishlab chiqarish uzilishlari minimal darajaga tushadi;
- materiallar aylanish tezligi ortadi;
- moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi oshadi.

Natijada, ta'minot jarayonining ilmiy asosda tashkil etilishi TMZ hisobi bilan uzviy bog'liq holda korxonaning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlaydi. Zamonaviy yondashuvlar — "tezkor javob modeli", "just-in-time" tamoyili, raqamli logistika platformalari va avtomatlashtirilgan monitoring tizimlarini joriy etish — aksiyadorlik jamiyatlarining ta'minot faoliyatini yangi bosqichga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. 4-sonli "Tovar-moddiy zaxiralar" buxgalteriya hisobi milliy standarti.
2. 2-sonli "Zaxiralar" BHXS. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. Sh.T. Ergasheva, A.K. Ibragimov, N.K. Rizayev, I.R. Ibragimova. – Toshkent, 2019.
3. Keely L. Croxton, Sebastián J. García-Dastugue, Douglas M. Lambert, Dale S. Rogers. The Supply Chain Management Processes. // The International Journal of Logistics Management, 12(2):13–36, June 2001. DOI: [10.1108/09574090110806271](https://doi.org/10.1108/09574090110806271).
4. Пронин И.И. Управление цепями поставок: теоретические и прикладные аспекты. <https://cyberleninka.ru/article/n/upravlenie-tsepyami-postavok-teoreticheskie-i-prikladnye-aspekty>.
5. Смирнова Е.А., Зуев А.В. Модели и методы управления цепочками поставок. // Вестник Астраханского государственного технического университета. Серия: Экономика, 2022, №2, с. 95–100. DOI: [10.24143/2073-5537-2022-2-95-100](https://doi.org/10.24143/2073-5537-2022-2-95-100).
6. Ж.Ж. Кенжебай, С.К. Ахметкалиева. Неманипулятивные механизмы планирования в управлении цепочками поставок. // Вестник КазКГА, №2 (131), 2024.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
